NUTQ OHANGINING MAZMUNNI FARQLASHDAGI VAZIFASI

Aytbayev D.T.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq ohangining nutq mazmunini shakllantirish va farqlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Nutq ohangining sintaktik, mazmuniy va pragmatik ma’nolarni yuzaga chiqarishdagi imkoniyatlari, bir xil leksik-grammatik tarkibli gaplarning turli ohang orqali har xil kommunikativ ma’no ifodalashi yoritiladi. Shuningdek, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda sabab-natija, shart-natija, izohlash va qarama-qarshilik kabi mazmuniy munosabatlarni farqlashdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: intonatsiya, semantik-differensial funksiya, prosodiya, sintaktik birlik, semantika, pragmatika, kommunikativ ma’no, bog‘lovchisiz qo‘shma gap, mantiqiy urg‘u, pauza, melodika.

Abstract: This article analyzes the role of speech intonation in shaping and differentiating the content of speech. It examines the capacity of intonation to convey syntactic, semantic, and pragmatic meanings, and explains how sentences with identical lexical and grammatical composition can express different communicative meanings through different intonation. It also shows the importance of intonation in distinguishing semantic relations such as cause-effect, condition-result, explanation, and contrast in asyndetic compound sentences (those without conjunctions).

Keywords: intonation, semantic-differential function, prosody, syntactic unit, semantics, pragmatics, communicative meaning, asyndetic compound sentence, logical stress, pause, melody.

Til shakl va mazmunning o‘zaro munosabatiga asoslangan murakkab belgilar tizimi bo‘lib, uning mazmuniy imkoniyatlari leksik, grammatik va fonetik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, fikr yo‘nalishi va munosabatini ifodalashda nutq ohangi muhim ahamiyatga ega. Bir xil leksik-grammatik tarkibga ega gap turli ohangda talaffuz qilinganda, har xil kommunikativ mazmun ifodalashi mumkin. Masalan, *Siz keldingiz* (*Siz keldingiz*?) gapining pasayuvchi ohangda aytilishi darak, ko‘ta-riluvchi ohangda talaffuz qilinishi esa so‘roq mazmunini yuzaga chiqaradi. Demak, nutq ohangi gapning shakliy tarkibini o‘zgartirmagan holda uning mazmunini farqlashga xizmat qiladi [1, 15, 16].

O‘zbek tilida nutq ohangining sintaktik va mazmuniy imkoniyatlarini o‘rganish fonetika, sintaksis va pragmatikaning o‘zaro aloqasini aniqlashda muhimdir.

Shaklan bir xil sintaktik birliklarning turli nutqiy vaziyatlarda har xil mazmun ifodalashi mazmuniy va nutqiy omillarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada nutq ohangining mazmunni farqlashdagi vazifasi, uning sintaktik va pragmatik omillar bilan aloqasi hamda bir xil yoki yaqin shakldagi qurilmalarning mazmuniy farqlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi [14, 15, 16, 17].

Nutq ohangining mazmunni farqlashdagi vazifasi uning nutqiy vaziyat va so‘zlovchining maqsadi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bir xil gap turli vaziyatlarda ohangning o‘zgarishi orqali ta’kid, gumon, hayrat, norozilik, ishonch yoki shubha kabi qo‘shimcha mazmunlarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun gap mazmunini to‘liq anglashda uning grammatik tuzilishi bilan bir qatorda, qanday ohangda aytilgani va qaysi nutqiy vaziyatda qo‘llangani ham hisobga olinadi [7; 8].

Nutq ohangi gapning axborotiy bo‘linishini shakllantirishda ham muhimdir. Mantiqiy urg‘u yordamida so‘zlovchi uchun muhim bo‘lgan birlik ajratiladi, pauza orqali esa nutqning mazmuniy qismlari chegaralanadi. Natijada ohang gapning nafaqat umumiy mazmunini, balki uning ichki axborot tuzilishini ham belgilaydi. Shu sababli nutq ohangini fonetika, sintaksis, mazmunshunoslik va nutqiy vaziyat bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarur.

Nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi bir xil yoki o‘xshash shakldagi sintaktik birliklarning turli mazmun va muloqot ma’nolarini ajratishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Siz bugun kelasiz gapining pasayuvchi ohangda aytilishi darak, ko‘tariluvchi ohangda talaffuz qilinishi esa so‘roq mazmunini yuzaga chiqaradi. Demak, leksik va grammatik tarkib o‘zgarmagan holda nutq ohangining o‘zgarishi gapning muloqot mazmunini farqlashga xizmat qiladi.

Nutq ohangining mazmunni farqlash imkoniyati darak va so‘roq ma’nolari bilangina cheklanmaydi. U buyruq, iltimos, hayrat, gumon, ta’kid, norozilik va ishonch kabi turli nutqiy ma’nolarni ifodalashda ham faol ishtirok etadi. Masalan, Keling shakli turli vaziyat va ohang asosida taklif, undash yoki iltimos mazmunini anglatishi mumkin. Shu sababli sintaktik shaklning o‘zi nutqiy ma’noni to‘liq belgilamaydi; uning mazmuni ohang, matn qurshovi va muloqot vaziyati bilan birgalikda yuzaga chiqadi.

Mazmunni farqlash vazifasi shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan ham bog‘liq. Bir sintaktik qolip bir nechta mazmuniy imkoniyatni o‘zida mujassamlashtirishi mumkin, ularning qaysi biri muayyan nutq jarayonida yuzaga chiqishi esa matn qurshovi, muloqot vaziyati va nutq ohangiga bog‘liq [1, 2, 5]. Shu jihatdan nutq ohangi sintaktik birlikning yashirin mazmuniy imkoniyatlarini aniq nutqiy ma’noga aylantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Nutq ohangining mazmuniy imkoniyatlarini sintaktik tuzilishdan ajratib o‘rganish mumkin emas. Gapning tuzilishi va ohangiy qurilishi bir-birini to‘ldirib,

uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabat, mazmuniy yo‘nalish va muloqot markazini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, gapning axborotiy bo‘linishida nutq ohangi muhim o‘rin tutib, qaysi birlikning yangi axborotni ifodalashi yoki alohida ta’kidlanishini belgilaydi. Masalan, *Bugun Akmal universitetga bordi* gapida mantiqiy urg‘uning turli birliklarga tushirilishi mazmuniy markazning o‘zgarishiga olib keladi: ***bugun*** – vaqt, ***Akmal*** – bajaruvchi, ***universitetga*** – harakat yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadi. Demak, mantiqiy urg‘u gapdagi axborotning ahamiyat darajasini o‘zgartirib, so‘z-lovchi uchun muhim bo‘lgan mazmuniy qismni ajratadi.

Nutq ohangining sintaktik va mazmuniy vazifasi murakkab sintaktik qurilmalarda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, predikativ qismlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalashda ohang va pauza muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sintaktik shakl mazmuniy munosabatni to‘liq ifodalab bermagan hollarda nutq ohangi uning mazmuniy imkoniyatlarini aniqlashtirib, muayyan nutqiy ma’noni yuzaga chiqaradi.

Nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki bunday gaplarda predikativ qismlar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlar ko‘pincha bog‘lovchi vositalarsiz, ohang, pauza, mantiqiy urg‘u va mazmuniy yaxlitlik orqali yuzaga chiqadi. O‘zbek tilidagi qo‘shma gap sintaksisiga oid tadqiqotlarda ham predikativ qismlar o‘rtasidagi munosabatlarning turli vositalar yordamida shakllanishi qayd etilgan [18]. Shu jihatdan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda nutq ohangi sintaktik shaklni mazmuniy jihatdan aniqlashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Masalan, *Yomg‘ir yog‘di, yo‘llar ho‘l bo‘ldi* gapida qismlar o‘rtasidagi munosabat sabab-natija sifatida anglashiladi. Biroq matn qurshovi va ohangning o‘zgarishiga ko‘ra mazkur munosabat ketma-ketlik tarzida ham talqin qilinishi mumkin. *Sen ayt – men bajaraman* gapida esa pauza, birinchi qismdagi tugallanmagan ohang va ikkinchi qismdagi pasayuvchi ohang predikativ qismlar o‘rtasidagi shart-natija munosabatini kuchaytiradi. Demak, pauzaning davomiyligi, ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishi hamda mantiqiy urg‘uning o‘rni bog‘lovchisiz qo‘shma gap mazmunining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda nutq ohangi yordamida sabab-natija, shart-natija, izohlash, qarama-qarshilik, ketma-ketlik, payt va qiyoslash kabi mazmuniy munosabatlar farqlanishi mumkin. Shu sababli bunday gaplarni faqat shakliy-sintaktik belgilar asosida tahlil qilish ayrim mazmuniy farqlarni to‘liq ochib bermaydi. Nutq ohangining sintaktik tuzilish bilan uzviy aloqasi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlarda ham ta’kidlangan [7, 9, 18]. Shunday qilib, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda nutq ohangi predikativ qismlar o‘rtasidagi mazmuniy aloqani aniqlashtiruvchi va farqlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi uning nutqiy-vaziyatga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq, chunki real muloqot jarayonida gap mazmuni faqat lug‘aviy va grammatik tarkib bilan belgilanmay, so‘zlovchining maqsadi, tinglovchiga munosabati, vaziyat va matn qurshovi asosida ham shakllanadi. Shu sababli bir xil gap turli vaziyatlarda turlicha muloqot mazmunini ifodalashi mumkin.

Masalan, *Siz ham keldingiz* gapining neytral ohangda aytilishi oddiy xabarni bildiradi. Biroq ohangning o‘zgarishi natijasida unda hayrat, norozilik yoki ta’kid kabi qo‘shimcha mazmunlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda gapning grammatik shakli o‘zgarmaydi, ammo uning nutqiy talqini o‘zgaradi. Demak, nutq ohangi so‘zlovchining maqsadini va tinglovchiga munosabatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi [10].

Nutq ohangi so‘zlovchining ishonchi, gumoni, hayrati, taajjubi, noroziligi, tasdig‘i yoki inkorini bevosita yoki bilvosita ifodalashi mumkin. Bunday mazmunlarning yuzaga kelishida tovush balandligi, kuchi, sur’ati, pauza va tembr kabi vositalar o‘zaro ta’sirlashadi. Shunday qilib, nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi alohida bir ohangiy vosita emas, balki ushbu vositalarning yaxlit tizimi asosida yuzaga keladi.

Yuqoridagi tahlillar intonatsiyaning nutq mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini uch asosiy yo‘nalishda ko‘rsatish imkonini beradi: kommunikativ differensiallashuv. Bunda intonatsiya bir xil grammatik shakldagi gaplarning darak, so‘roq, buyruq, undov kabi kommunikativ turlarini farqlashga xizmat qiladi; semantik differensiallashuv. Bunda intonatsiya sintaktik qismlar o‘rtasidagi sabab, shart, natija, izoh, qarama-qarshilik, ketma-ketlik kabi mazmuniy munosabatlarning yuzaga chiqishiga yordam beradi; pragmatik differensiallashuv. Bunda intonatsiya so‘zlovchining muayyan fikrga munosabatini, kommunikativ maqsadini va tinglovchiga yo‘naltirilgan munosabatini aniqlashtiradi. Shu jihatdan intonatsiya-ning semantik-differensial funksiyasini sintaksis, semantika va pragmatika kesishgan nuqtada namoyon bo‘ladigan kompleks hodisa sifatida baholash mumkin. Sintaktik shakl mazmunning umumiy modelini belgilasa, intonatsiya ushbu modelning konkret nutqiy vaziyatdagi mazmuniy va kommu-nikativ imkoniyatlarini aktuallashtiradi.

O‘zbek tilining sintaktik tizimida shakl va mazmun munosabatining murak-kabligi, xususan, bir shakl doirasida bir nechta mazmuniy imkoniyatlarning mavjud-ligi intonatsiyaning funksional ahamiyatini yanada oshiradi [15, 16, 17, 18]. Shu sababli sintaktik birliklarning semantik imkoniyatlarini tadqiq etishda segmental birliklar bilan bir qatorda supersegment vositalarni ham hisobga olish zarur.

Nutq ohangi og‘zaki nutqning fonetik shakllanishi bilan birga, uning mazmuniy, sintaktik va muloqotga oid xususiyatlarini belgilovchi muhim vositadir. Ayniqsa, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ohang, pauza va mantiqiy urg‘u sabab-

natija, shart-natija, izohlash, qarama-qarshilik kabi mazmuniy munosabatlarni aniqlashtiradi. Uning mazmunni farqlash vazifasi so‘zlovchining maqsadi va muloqot vaziyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, nutq ohangini fonetika, sintaksis, mazmunshunoslik va pragmatika bilan aloqador holda o‘rganish o‘zbek og‘zaki nutqining mazmuniy xususiyatlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Интонация и синтаксис тюркских языков. – М.: Наука, 1964.
2. Брызгунова Е.А. Звуки и интонация русской речи. – М.: Русский язык, 1984.
3. Бондарко Л.В. Фонетика современного русского языка. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1998.
4. Кодзасов С.В., Кривнова О.Ф. Общая фонетика. – М.: РГГУ, 2001.
5. Николаева Т.М. Фразовая и синтагматическая интонация. – М.: Наука, 1969.
6. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974.
7. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы. – М.: Наука, 1976.
8. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М.: Добросвет, 2000.
9. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во Московского университета, 1976.
10. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001.
11. Валгина Н.С. Современный русский язык: Синтаксис. – М.: Высшая школа, 2003.
12. Долинин К.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1985.
13. Сусов И.П. Введение в теоретическое языкознание. – М.: АСТ: Восток–Запад, 2007.
14. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
16. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
17. Нурмонов А. Ўзбек тили синтаксиси асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
18. Абдураҳмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: Фан, 1958.